

AKSIYADORLIK TIJORAT “XALQ BANKI” BOSHQARUVI RAISINING MUROJAATI

Hurmatli hamkasblar va bankimiz mijozlari!

Korrupsiya - bu shaxsning o‘z mansab yoki xizmat mavqeidan shaxsiy manfaatlarini yoxud o‘zga shaxslarning manfaatlarini ko‘zlab moddiy yoki nomoddiy naf olish maqsadida qonunga xi洛f ravishda foydalanishi, xuddi shuningdek bunday nafni qonunga xi洛f ravishda taqdim etish tushuniladi.

Korrupsiya jamiyat taraqqiyotiga to‘sinq bo‘layotgan eng xavfli illat. Shu bois korrupsiyaga qarshi kurash dunyo hamjamiyati oldida turgan eng dolzarb masalalardan biriga aylangan.

Mamlakatimizda korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish, jamiyatning barcha sohalarida korruption holatlarni keltirib chiqaruvchi omillarga chek qo‘yishga qaratilgan keng ko‘lamli islohotlar olib borilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan 2017 yil 3 yanvarda O‘zbekiston Respublikasining “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi Qonuni imzolandi. Qonun bilan korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha davlat siyosatini amalga oshirish va korrupsiyaga qarshi murosasiz munosabatni shakllantirish ko‘zda tutilgan. Shu bilan birga, korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlari etib aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish, korrupsiyaga oid huquqbazarliklarni o‘z vaqtida aniqlash va ularga chek qo‘yish, korrupsiyaga oid huquqbazarliklarni sodir etganlik uchun javobgarlikning muqarrarligi prinsipini ta‘minlash etib belgilandi.

Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha davlat siyosatini amalga oshirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining bir qator farmon va qarorlari qabul qilindi, chora-tadbirlar belgilandi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasida Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmoniga muvofiq Xalq bankida korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha ichki nazorat va komplayens tizimi tashkil etildi.

Bank xodimlari va mijozlari tomonidan Xalq bankida korruption holatlar hamda yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan qoidabuzarliklar bo‘yicha xabar berishi uchun **1106** qisqa raqamli hamda **(95) 197-99-01** raqamli ishonch telefonlari, **komplayens@xb.uz** pochta manzili va **“Tezkor xabar”** mobil ilovasi tashkil etilgan. Ushbu aloqa kanallari orqali qabul qilingan murojaatlar to‘g‘ridan-to‘g‘ri mas‘ul bo‘linma xodimlari tomonidan o‘rganib chiqilib, tegishli choralar ko‘rilmoxda.

Men mazkur murojaatim bilan Sizlarni Xalq bank tizimida korruption holatlar kuzatilganda yoki shubha tug‘diruvchi va noqonuniy holatlar yuz berganida aloqa kanallarimiz orqali murojaat qilishga chaqirib qolaman.

Unutmang, murojaatingiz maxfiyligi kafolatlanadi!

Xalq banki Boshqaruvi Raisi SH. ATABAYEV